

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2021-yil, dekabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

DOLZARB MAVZU	7
Rustam JUMAYEV. Raqobatbardosh sifatli ta'lim: xalqaro tajriba va o'zbekiston ta'limi	7
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA.....	10
Moxira RASULOVA. Oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanib talabalarni o'qitish metodikasi	10
Matluba ZARIPOVA. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish yo'li va usullari	13
Ruqiya ASHURBAYEVA. G'arb ta'lim tizimida integrativ tamoyillarning tatbiqi.....	17
Olim TO'RAQULOV. Abdumo'min SABURBAYEV, Bunyod ESHONQULOV. Jalol AXMEDOV. Axborotli ta'lim muhitini raqamlashtirish: muammolar va yechimlar	20
Ruxshona ISROILOVA. Ona tini o'qitish metodikasi fanidan talabalarning bilimni baholashda kredit-modul tizimining afzalliklari	25
Parvina NURALIYEVA. Ta'limda raqamli texnologiyalar va ularning zamonaviy jamiyatga ta'siri	28
Dilshod KULMURADOV. Rivojlangan mamlakatlardagi raqamli loyihalash kompetensiyalari hamda masofaviy ta'limning rivojlanishini o'rganish metodikasi	32
Ilhom JO'RAYEV. Pedagogik faoliyatda mobil texnologiyalardan foydalanishning qulayliklari.....	36
Mels MAHMUDOV, Flora NE'MATOVA. Designing primary education: problems and solutions	39
Sojida NAJIYEVA. Talabalar ijodiy faoliyatini va kredit-modul tizimdagi pedagogik ahamiyati	44
Гуландом САГДУЛЛАЕВА, Мамлакат МУСТАФАЕВА, Феруза ХАЛИЛОВА. "Blended learning" - современный подход к преподаванию в медицинском образовании.....	47
Nigina ISMATOVA. Kompetentlik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish.....	50
Shomurod MUSTAFAYEV. Jahon artpedagogik tizimlari tahlili orqali san'atning bilish funksiyasini takomillashtirish.....	53
Bahodir NORMO'MINOV. Bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari	57
G'ulom HAKIMOV. Oliy ta'lim tizimi faoliyatini tashkil etishda uni boshqarish samaradorligini baholash	60
I.A. ESHMAMATOV, A. ABDIRAXMONOV. Pedagog kadrlarning individual kasbiy layoqatga egaligini o'rganish monitoringi.....	63
Акрамжон ТЕШАБОЕВ. Современные подходы к физическому развитию детей дошкольного возраста	67
Nuriddin ACHILOV. Al-Hakim at-Termiziyning "Qaytarilgan amallar" ("al-manhiyot") asari va uning tarbiyaviy ahamiyati.....	76
Gullola RAXMONOVA. Talabalarni ma'naviy shakllantirishda ma'naviy –axloqiy tarbiyaning o'rni.....	80
Asroridin SAMIYEV. Talaba-yoshlarni hadis asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi.....	83
Gulshoda XUDOYQULOVA. O'smir shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari	87
Nilufar DALIMOVA. Avlod ijtimoiy subyekt sifatida.....	91
Nozima MULLABAYEVA. O'smirlar jamoasida autsayderlar paydo bo'lishining psixologik omillari.....	94
Ситорабону ХОЛБОЕВА. Педагогические основы подготовки девушек студентовк семейным отношениям	97
Анвар ЭРГАШЕВ. К вопросу духовно-нравственного воспитания с внедрением метод проекта в условиях дистанционного обучения	101
Fozil TO'RAXONOV. Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirishning metodik asoslari	105
Аслиддин УЗОҚОВ. Талабаларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш технологияси.....	109
Саломат ЖЎРАЕВА. Узлуксиз таълимда ватанпарварликни шакллантиришнинг педагогик омиллари	114
МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'LIM.....	118
Rustambek QO'LDOSHEV. Boshlang'ich sinf chapaqay o'quvchilarga beriladigan pedagogik yordam va yozuvga o'rgatish jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar	118
Ruxshona ISROILOVA. Oliy ta'limda kredit-modul tizimi asosida ona tilini o'qitish metodikasi fani ta'limi muammosining fanda yoritilishi.....	123
O'g'iljon OLLOQOVA. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning kompetensiyaviy yondashuvini tashkil etish	126

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Moxira RASULOVA

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Qarshi filiali o'qituvchisi

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB TALABALARNI O'QITISH METODIKASI

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilish borasida olib borilayotgan ishlar hamda hozirgi kunda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kompyuterlashtirish, ta'lim texnologiyalari, axborot kommunikatsion texnologiyalar, informatika, "Informatika va axborot texnologiyalari" fani, pedagogik texnologiyalar, o'yin texnologiyasi, kompetensiya.

В статье описывается проводимая работа по внедрению информационно-коммуникационных технологий в высшее образование, использование информационных технологий, эффективность использования образовательных технологий на сегодняшний день.

Ключевые слова: компьютеризация, образовательные технологии, информационно-коммуникационные технологии, информатика, "Информатика и информационные технологии", педагогические технологии, игровые технологии, компетенции.

The article describes the work on the introduction of information and communication technologies in higher education, the use of information technology, the effectiveness of the use of educational technology today.

Key words: computerization, educational technologies, information and communication technologies, informatics, "Informatics and information technologies", pedagogical technologies, game technology, competence.

Kirish. Mamlakatimizda istiqloqlning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andazalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona-yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi PF-3080 sonli "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida" Farmoni e'lon qilindi. Bu farmon iqtisodiyotning turli tarmoqlari, boshqaruv, biznes, fan va ta'lim sohalariga axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda aholining turli qatlamlariga zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng foydalanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratib berishda asosiy qadam bo'ldi. Bu farmonni bajarish yuzasidan va axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida strategik ustuvor vazifalarni amalga oshirishga doir amaliy chora-tadbirlarni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyunda "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda 2002-2010-yillarda kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi va ulkan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Xalq ta'limi vazirligiga qarashli umumiy o'rta ta'lim maktablari kompyuter bilan ta'minlandi, darsliklar nashr qilindi. Bundan tashqari, ushbu hujjat asosida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- axborot kommunikatsion texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish masalalari belgilandi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kompyuterlashtirish va AKTni rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etildi;
- sohada tashkiliy o'zgartirishlar amalga oshirildi (O'zAAA, AKTni rivojlantirish Jang'armasi, TATU tashkil etildi).

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909 raqamli Qarori mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarning ham mantiqiy davomi, ham uni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Qarorning eng muhim jihatlardan biri, unda oliy

malakali mutaxassislar tayyorlashda xalqaro standartlar mezoniga rioya qilish, shart-sharoit yaratish, zamon talabiga mos bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim sohasidagi islohotlar zaminidagi g'oyani amalga oshirish bir qator muhim omillarga bog'liq. Ular orasida shunday murakkab muammolar borki, bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etmay turib tub o'zgarishlar samarasi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Mana shunday muammolardan biri "Informatika va axborot texnologiya asoslari", "Informatika", "Informatika va axborot texnologiyalari" kabi fanlarni o'qitish muammosidir.

"Informatika" yo'nalishidagi fanlarni o'qitish zaruriyati, tuzilmasi va faoliyat ko'rsatish sohasida yuqori sur'atlar va fundamental o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jamiyatdagi bunday o'zgaishlarning ildizi axborotlar hosil qilish, ularni saqlash, uzatish va ulardan foydalanishning yangi usul va vositalariga borib taqaladi. Biz axborotlashgan davrda yashayotganligimiz sababli doimo ortib borayotgan axborot hajmini qayta ishlash va o'z faoliyat doirasida undan unumli foydalanish zaruriyati bilan duch kelayotgan jamiyat a'zolari, kasb egalari soni tobora ortib bormoqda.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi kunda informatika fanining rivoji va istiqbollari, bu fan oldida turgan dolzarb masalalar haqida talaba va o'quvchilarga o'z vaqtida ma'lumot yetkazish, bilim berish zamonaviy fan o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchi olimlarning muhim vazifalaridir. Sababi fan shunchalik shiddat bilan rivojlanmoqdaki, agar bu bilimlar bugun talabalarga yetkazilmasa, ertaga eskirgan ma'lumotga aylanib qolishi hech gap emas. Shunday muhim vazifalarni amalga oshirishda ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundaki, respublikamizda jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi

"Informatika va axborot texnologiyalari" fanining shakllanishi, rivojlanishi va istiqbollari masalalari izlanuvchilar va olimlar tomonidan keng o'rganilib kelinadi. Jadal rivojlanib borayotgan fan sirlarini o'rganish va bu boradagi yangi fikrlar bilan o'rtoqlashishni ko'zda tutib, Respublika miqiyosida bir qancha ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilib undan ayrim natijalar kutilmoqda. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy samaradorlik - AKT taraqqiyoti tobora tezlashib borayotgan davrda ta'lim tizimida o'quv jarayonini tashkil qilishda informatika kabi zamonaviy fanlarni o'qitish yo'llari va unda mavjud muammolar hamda ularning yechimlarini o'rganish, shuningdek, ular haqidagi ilmiy tasavvurlar kengayishi, ilmiy jamoatchilikda bu borada shakllangan tushunchalarning aniqlashtirilishi, umumlashtirilishi uchun xizmat qilishi mumkin.

Muhomalalar va natijalar. Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturi asosida mualliflar guruhi tomonidan 1-, 4-, 6-, 7-sinf darsliklari 50%-70%gacha o'zgartirishlar kiritilib, nashrga tayyorlandi. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba (yoki o'quvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egalashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o'quvchi)larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi. Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o'rniga zamonaviy darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish usullari - interfaol usullar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi yoki talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi yoki talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa bularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa- ana shunda o'qitish jarayonining sifati oshadi.

#6. 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

Bugungi kun talabi ta'limni sifat o'zgarishlariga olib keluvchi yangicha yondashuvlarni izlashga undamoqda va uni o'rganishdagi yondashuvlar o'zgarmoqda. Ta'limda yangi bilimlarni amalda qo'llash natijasi innovatsiyalarga asoslangan yangi ta'lim yaratilishiga olib kelmoqda "Informatika" fanini o'qitish samaradorligini oshirish o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda o'tkazishda pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, o'qitish mazmuniga mos dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, ularni o'quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifalarning dolzarbligini e'tiborga olgan holda "Informatika" fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish holatini o'rganish, tahlil etish, ulardan samarali foydalanish metodikasini, mos uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish zarur.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi maqsad tashkil etadi. O'yinga ko'ra mehnat va o'qish birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilishi, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini-o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Darslarda qiziqtirish o'qitishning boshqa shakllaridan, ya'ni rebus va boshqotirmalardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu qiziqtiruvchi metodlardan foydalanganda, o'qituvchi darsni maqsadli tashkil qilishni rejalashtiradi, ya'ni krossvord, rebus, boshqotirmalarni fanning mazmuniga mos tayyorlaydi. Darsning maqsadini aniqlaydi va kutilayotgan natijani loyihalaydi. Rebus, krossvordlar o'yinli texnologiyalar sirasiga kiradi.

"Rebus" so'zi yunonchadan olingan bo'lib, "So'zlar orqali emas, balki rasmlar orqali ifodalash" ma'nosini anglatadi. Bu - biror so'z yoki atamaning rasmlar, notalar, harflar bilan birgalikda ifodalanishi orqali hosil qilingan jumboqdir.

"O'zbekistonda axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasida O'zbekiston Respublikasining 11 ta qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 40 dan ortiq qarori hamda 1000 ga yaqin shu sohaga oid me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Zamonaviy o'qituvchining faoliyatini monitoring qilish bo'yicha ishlab chiqilgan va sinovdan o'tgan ishchi modeli unga kasbiy o'sish bo'yicha o'z strategiyasini yaratishga imkon beradi va quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: *fanga oid, psixologik-pedagogik, ilmiy-tadqiqot, akmeologik, kommunikativ, bilim sohasidagi kompetensiya, o'quv jarayonining valeologiyasi, mediatexnologiyalar sohasidagi kompetensiya va dizayn ko'nikmalari.*

Monitoring natijalariga ko'ra, "ortda qolgan" kompetensiyalar aniqlanadi va o'qituvchining individual uslubiy mavzusini tanlash belgilanadi. Qoida tariqasida, u o'qituvchining ish shakllari va uning kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Masalan, monitoring jarayonida o'qituvchining valeologik kompetensiya darajasini oshirish zarurligi ma'lum bo'ladi. O'qituvchiga ma'lum bir turdagi kompetensiya darajasini oshiradigan faoliyat shaklini tanlash tavsiya etiladi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasi bo'yicha talabalar quyidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lishi zarur:

- informatika va axborot texnologiyalari haqida tushunchalar;
- informatika va axborot texnologiyalarining har bir inson hayotidagi va jamiyatning rivojidadagi roli;
- informatikaning texnik va dasturiy vositalarining mohiyati va didaktik imkoniyatlari;
- yangi pedagogik texnologiyalari va ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash.

Xulosa. Hozirgi vaqtda ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim muassasalarida har bir fan bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiya asosida ishlab chiqilgan dars rejalari ma'lum darajada o'qitish sifati va samaradorligini oshirishda alohida o'rin tutadi. Bu, birinchi navbatda, professor-o'qituvchilarning professionalligi va ijodkorligi, ikkinchidan, o'z faoliyatida turli xil texnik va axborot texnologiya vositalarini qo'llash bilan bog'liq.

Adabiyotlar

1. Aripov M.M., Muhammadiyev J.O'. Informatika, informatsion texnologiyalar // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –T.: TDYI, 2004.
2. Axmedov A., Tayloqov N. Informatika // Akademik litsey va kasb–hunar kollejlari uchun darslik. –T.: "O'zbekiston", 2001.
3. G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot texnologiyalari –T.: "O'zbekiston", 1999.
4. [www.http.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. <http://tatumarkaz.uz/>